

OLDOS XAKSLINING 1920-YILLAR ROMANLARIDA URUSHDAN KEYINGI AVLODNING MA'NAVIY INQIROZI TALQINI

Tojiboyev Doniyor Odiljon o'g'li
Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24184138

Annotatsiya. Maqolada Oldos Xakslining 1920-yillarda nashr etilgan "Crome Yellow", "Antic Hay", "Those Barren Leaves" va "Point Counter Point" romanlarida urushdan keyingi avlodning ma'naviy inqirozi badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Urushda qatnashmagan adib ijodini "Yo'qotilgan avlod" mavzusi doirasida ko'rib chiqish uchun asos sifatida uning "urush avlodi" haqidagi o'z e'tirofi va avlodning "fuqarolik qanoti" tushunchasi ko'rsatiladi. Tadqiqot natijasida Xakslining romanlari urushdan keyingi bo'shliq, ideallarga ishonchsizlik va harakatga layoqatsizlikni bosqichma-bosqich tadqiq etishi, "Masxarabozlar raqsi" esa bu turkumning markaziy asari ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Oldos Xaksli, Yo'qotilgan avlod, urushdan keyingi ingliz romani, ma'naviy inqiroz, "Masxarabozlar raqsi", g'oyalar romani, akediya.

ТРАКТОВКА ДУХОВНОГО КРИЗИСА ПОСЛЕВОЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ В РОМАНАХ ОЛДОСА ХАКСЛИ 1920-Х ГОДОВ

Аннотация. В статье анализируется художественное воплощение духовного кризиса послевоенного поколения в романах Олдоса Хаксли 1920-х годов: «Желтый Кром», «Шутовской хоровод», «Эти бесплодные листья» и «Контрапункт». В качестве обоснования обращения к творчеству писателя, не участвовавшего в войне, в рамках темы «потерянного поколения» рассматриваются его собственное признание о принадлежности к «поколению войны» и понятие «гражданского крыла» поколения. Показано, что романы Хаксли последовательно исследуют послевоенную пустоту, утрату веры в идеалы и неспособность к действию, а центральным произведением цикла является «Шутовской хоровод».

Ключевые слова: Олдос Хаксли, потерянное поколение, английский послевоенный роман, духовный кризис, «Шутовской хоровод», роман идей, акедия.

THE SPIRITUAL CRISIS OF THE POST-WAR GENERATION IN ALDOUS HUXLEY'S NOVELS OF THE 1920s

Abstract. The article analyses the artistic representation of the spiritual crisis of the post-war generation in Aldous Huxley's novels of the 1920s: Crome Yellow, Antic Hay, Those Barren Leaves and Point Counter Point. The justification for examining the work of a writer who did not serve in the war within the theme of the "Lost Generation" is found in his own statement about belonging to the "war generation" and in the notion of the "civilian wing" of that generation. The study shows that Huxley's novels consistently explore post-war emptiness, loss of faith in ideals and inability to act, and that Antic Hay is the central work of the cycle.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Keywords: Aldous Huxley, Lost Generation, English post-war novel, spiritual crisis, Antic Hay, novel of ideas, accidie.

Kirish

Birinchi jahon urushi ingliz adabiyotida “Yo‘qotilgan avlod” mavzusini shakllantirdi. Bu ibora ikki ma’noda qo‘llanadi: birinchisi urushda halok bo‘lganlar fojiasini, ikkinchisi omon qolganlar orasidagi yo‘nalishsizlik va maqsadsizlikni bildiradi. Oldos Xaksli bu avlod adiblari qatoriga an’anaviy ravishda kiritilmaydi, chunki ko‘zi deyarli ko‘rmagani sababli urushda qatnashmagan. Shu bois uning 1920-yillardagi romanlarini mazkur mavzu doirasida o‘rganish alohida asoslashni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi Xakslining “Crome Yellow” (“Krom sarg‘ishligi”, 1921), “Antic Hay” (“Masxarabozlar raqsi”, 1923), “Those Barren Leaves” (“Bu bepusht varaqlar”, 1925) va “Point Counter Point” (“Kontrapunkt”, 1928) romanlarida urushdan keyingi avlodning ma’naviy inqirozi qanday badiiy ifodalanganini aniqlashdan iborat. Ushbu romanlar bir xil muhitni, ya’ni urushdan keyingi ingliz ziyolilari, san’atkorlari va zodagonlarining hayotini tasvirlaydi va suhbat hamda g‘oyalar bahsiga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xaksli ijodini urush avlodi madaniyati kontekstida S. Hayns o‘rganadi; uning xulosalari ushbu maqolaning nazariy asosini tashkil etadi [1]. Tadqiqotda tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik va matnni yaqindan tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Xaksli romanlari bilan qiyoslash uchun R. Oldington va F.S. Fitsjerald asarlari jalb etildi.

Natijalar va muhokama

1. Xaksli ijodini “Yo‘qotilgan avlod” mavzusida ko‘rishning asoslari

Bu asosni adibning o‘zi bergan. Ota “Masxarabozlar raqsi” romanidan qattiq norozi bo‘lganida, Xaksli unga javob xatida kitob “urush avlodi” deb atash mumkin bo‘lgan avlod vakili tomonidan o‘ziga o‘xshaganlar uchun yozilganini, u avvalgi davrda amal qilgan deyarli barcha me’yor va qadriyatlarning zo‘ravonlik bilan buzilishini ko‘rgan zamon hayotini aks ettirishini bildirgan [1]. Hayns bu e’tirofni tahlil qilib, Xaksli yoshi jihatidan shu avlodga mansubligini (u Ouendan bir yosh kichik, Greyvsdan bir yosh katta), ammo front tajribasini boshdan kechirmagani sababli avlodning “fuqarolik qanoti”ga tegishli ekanini ta’kidlaydi [1].

Shunday qilib, “Yo‘qotilgan avlod” iborasining birinchi ma’nosi, ya’ni halok bo‘lganlar fojiasi front adiblari asarlarida (xususan, Oldington romanida) yoritilsa, Xaksli ikkinchi ma’noni, ya’ni yo‘nalishini yo‘qotgan, sarson avlod holatini badiiy tadqiq etadi. Uning qahramonlari frontda bo‘lmagan yoki bu haqda gapirmaydi, lekin ular urush buzib tashlagan dunyoda yashaydi. Shu sababli Xakslini “Yo‘qotilgan avlod” mavzusining urushdan keyingi, fuqarolik talqinini yaratgan adib sifatida ko‘rish mumkin.

2. “Crome Yellow”: tarixdan qochish va harakatsizlik

Birinchi roman voqealari yozda Krom nomli qadimiy qasrda bo‘lib o‘tadi. Mezbonlar Genri va Prissilla Uimbushlarning mehmonlari, ya’ni yosh shoir Denis Stoun, rassom Gombo, faylasuf janob Skogan va boshqalar kunlarini suhbat, sayr va bahslarda o‘tkazadi; asar deyarli voqeasiz [2]. Urush tilga olinmaydi, lekin uning yo‘qligining o‘zi muhim: Krom qasri tarix va zamonaviy voqealardan ajralgan orolga o‘xshaydi. Mezbon qasrning o‘tmish tarixini yozadi, mehmonlar esa mavhum nazariyalar haqida bahslashadi. Bu tarixdan qochish yaqinda yuz bergan halokat haqida o‘ylashni istamagan ziyolilarning holatini ifodalaydi.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

G‘oyaviy jihatdan janob Skoganning kelajak haqidagi bashorati muhim: unda bolalar maxsus muassasalarda sun’iy yo‘l bilan yetishtiriladi, odamlar esa aqliy qobiliyatiga ko‘ra qat’iy tabaqalarga bo‘linadi. Bu epizodda adibning 1932-yildagi “Ajoyib yangi dunyo” distopiyasining ilk kurtagi ko‘rinadi; shu bilan birga u urushdan keyingi avlod insonparvar qadriyatlarga ishonchini yo‘qotib, jamiyatni ratsional boshqaruv asosida qayta qurish g‘oyalariga moyil bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Bosh qahramon Denis hayotni kitoblar orqali idrok etadi: u mezbonlarning jiyani Ennini sevadi, lekin tuyg‘usini izhor eta olmaydi, romanning yakunida esa o‘ziga o‘zi telegramma yuborib, go‘yo shoshilinch ish bilan chaqirilgandek qasrdan jo‘nab ketadi [2]. Telegramma orqali qochish motivi keyingi romanda yana takrorlanadi.

3. “Antic Hay”: ideallar va tuyg‘uning inqirozi

Romanga K. Marloning “Eduard II” tragediyasidan olingan epigraf qo‘yilgan. “Antic hay” qadimiy davra raqsining nomi, “antic” so‘zi esa g‘alati, kulgili, telbanamo degan ma’nolarni bildiradi [3]. Sarlavha shu tariqa qahramonlarni maqsadsiz aylanib yuruvchi kulgili va ayanchli raqqoslar sifatida ko‘rsatadi.

Bosh qahramon, o‘qituvchi Teodor Gambril ibodat paytida “vahiy” oladi, lekin bu diniy vahiy emas, ichiga havo to‘ldirilgan shim haqidagi tijorat g‘oyasidir. Xaksli yuksak tushunchalarni (vahiy, ilhom) eng maishiy narsalarga tatbiq etib, ularning qadrsizlanganini ko‘rsatadi. Ideallarga ishonchning yo‘qolishi romandagi bahsda ochiq ifodalanadi: rassom Lipiat san’atda buyuk orzular zarurligini himoya qilganda, Gambril shunday javob beradi: “After you’ve accepted the war, swallowed the Russian famine. Dreams!” (“Urushni qabul qilganingdan, Rossiyadagi ocharchilikni yutganingdan keyin. Orzular emish!”) [3]. Urush shunchaki dahshatli voqea emas, u “qabul qilingan”, ya’ni odamlar u bilan murosaga kelgan; shundan keyin yuksak so‘zlarga ishonib bo‘lmaydi. Lipiat romandagi ideallarga ishonuvchi yagona personaj, biroq adib uni iste’dodsiz va kulgili qilib tasvirlaydi: ideallarning o‘zi emas, ularni himoya qila oladigan odam yo‘q.

Urushning eng chuqur izi Mayra Vayvish obrazida ko‘rinadi. U go‘zal, boy, erkaklar e’tiboridagi ayol, lekin ichidan butunlay bo‘m-bo‘sh. Buning sababi 1917-yilda frontga qaytgan va bir haftaga yetmay halok bo‘lgan sevgilisi Toni Lem bilan bog‘liq: bir paytlar “Never again” so‘zlarini pichirlashning o‘zi uni yig‘latgan, endi esa ko‘zlarida yosh yo‘q [3]. Mayraning sovuqligi tug‘ma xususiyat emas, urush oqibatidir. Uning “Yosh avlod qani, Gambril? Biz qaridik” degan so‘zlari urush avlodining o‘zini yoshlikdan mahrum his etishini ko‘rsatadi [3].

Romanning ramziy markazi jaz qo‘shig‘i ostidagi raqs sahnasidir. Qo‘shiq “Hamlet”dagi “What’s he to Hecuba?” savoliga asoslangan, javobi esa “Nothing at all”; Gambril bu so‘zlarni takrorlab, “hech narsa”ni “olam ruhi” deb ataydi [3]. Sarlavhadagi raqs shu yerda amalga oshadi: qahramonlar “hech narsa” haqidagi qo‘shiq ostida aylanadi. Bo‘shliqqa qarshi turadigan yagona epizod Gambril va samimiy Emili munosabatidir, ammo Gambril Mayra bilan tushlik qilish uchun qolib, Emiliga yolg‘on telegramma jo‘natadi va samimiy tuyg‘u imkoniyati yengiltaklik tufayli yo‘qoladi. Yakunda Gambril va Mayra taksida Londonni kezadi; Mayra “Tomorrow will be as awful as today” (“Ertangi kun ham bugungidek dahshatli bo‘ladi”) deydi, fiziolog Shiruoter esa tajriba velosipedining pedalini bosib, joyida turgan holda “qochib” bormoqda [3]. Joyida turgan velosiped va maqsadsiz qatnayotgan taksi bir xil ma’noni bildiradi. Hayns “Yo‘qotilgan avlod” iborasining ikkinchi ma’nosini tushuntirar ekan, omon qolganlar orasida sarosima, maqsadsizlik va tugallanmagan ko‘plab boshlanishlar bo‘lganini yozadi [1]; roman yakuni shu holatning aniq badiiy obrazidir.

Romanning poetikasi ham shu mazmunga xizmat qiladi: unda an’anaviy syujet deyarli yo‘q, u alohida sahna va suhbatlardan tuziladi; har bir personaj muayyan qarashni ifodalaydi, matn iqtiboslar va

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

parodiyalarga boy, yuksak va past uslublar doimo to‘qnashtiriladi (ilohiy vahiy va shim reklamasi, Shekspir va jaz qo‘shig‘i). Gambrilning otasi, keksa me’mor, ko‘p yillar London shahrining maketini yasaydi: unda shahar 1666-yilgi yong‘indan keyin me’mor Kristofer Ren taklif qilgan, lekin amalga oshmagan reja asosida qayta qurilgan. Bu uyg‘un shaharga reklama chiroqlariga to‘la real London qarama-qarshi turadi: urushdan keyingi dunyoda tartib va uyg‘unlik g‘oyasi faqat maket, ya’ni amalga oshmagan orzu sifatida mavjud.

4. “Those Barren Leaves” va “Point Counter Point”: izlanish va xavf

“Those Barren Leaves” sarlavhasi U. Vordsvortning “The Tables Turned” she’ridan olingan bo‘lib, madaniyat va kitobiy bilim hayot ma’nosini topishga yordam bera oladimi, degan savolni belgilaydi [4]. Voqealar Italiyadagi saroyda, Krom qasri kabi tashqi dunyodan ajralgan madaniy orolda bo‘lib o‘tadi. Shoir va jurnalist Frensis Chelifer har qanday yuksaklikni, hatto haqiqatga intilishning o‘zini ham masxara qiladi. Kalami esa zavqqa to‘la hayotdan charchab, tog‘dagi kulbaga chekinadi va tafakkur bilan shug‘ullanishga qaror qiladi; bu yo‘l haqiqiy izlanishmi yoki navbatdagi qochishmi, adib aniq javob bermaydi [4]. Shu tariqa “Yo‘qotilgan avlod” vakili bo‘shliqni tasvirlashdan undan chiqish yo‘lini izlashga o‘ta boshlaydi.

“Point Counter Point” 1920-yillardagi eng yirik roman bo‘lib, sarlavhasi musiqiy atamadir. Yozuvchi qahramon Filip Kuorlz “romanni musiqalashtirish” g‘oyasini bayon qiladi: asar fuga kabi qurilib, bir mavzu turli personajlar tomonidan variatsiyalarda takrorlanishi kerak. Roman shu tamoyil asosida, o‘nlab personajlarning parallel rivojlanuvchi hikoyalaridan tashkil topgan [5]. Bu yerda inqiroz turli shakllarda namoyon bo‘ladi: ayrimlar yengil-yelpi hayotga beriladi, Spandrell esa hayotning ma’nosizligidan aziyat chekib, yovuzligi orqali Xudoning mavjudligini isbotlashga urinadi va qotillikka qo‘l uradi. Demak, ideallarini yo‘qotgan inson faqat befarq bo‘lib qolmaydi, u buzg‘unchiga ham aylanishi mumkin. Unga rassom Mark Rampion qarshi qo‘yiladi: u hayotni aql, tuyg‘u va tana uyg‘unligida idrok etishga chaqiradi (tadqiqotchilar bu obrazda D.G. Lorens siymosini ko‘radi). Agar “Masxarabozlar raqsi”da ideallarni himoya qiluvchi Lipiat kulgili va mag‘lub bo‘lsa, Rampion jiddiy va ishonarli ovozga ega: adib 1920-yillar oxirida holatdan chiqish yo‘lini izlay boshlagan. Lyusi Tantamaunt esa Mayra Vayvishning davomi sifatida talqin qilinadi, biroq uning hissizligining sababi tilga olinmaydi: o‘n yil ichida urushdan keyingi avlodning befarqligi odatiy holatga aylangan [5].

5. Akediya va qiyosiy jihatlar

Xakslining 1923-yilda nashr etilgan “On the Margin” to‘plamidagi “Accidie” essesi romanlarni tushunish uchun kalit vazifasini bajaradi. Unda adib o‘rta asr rohiblari orasida gunoh hisoblangan ruhiy loqaydlik, zerikish va harakatga ishtiyoqsizlik holatini tahlil qiladi; uning fikricha, bu holat zamonaviy davrda gunoh bo‘lishdan to‘xtab, davrning odatiy kayfiyatiga aylangan, urush esa uni chuqurlashtirgan [6]. Xaksli bu holatni axloqiy jihatdan qoralamaydi, balki uni davr kasalligi sifatida tashxis qiladi.

F.S. Fitsjerald “This Side of Paradise” romanida o‘z avlodini barcha xudolar o‘lgan, barcha urushlar o‘tib ketgan va insonga bo‘lgan e’tiqodlar larzaga kelgan sharoitda ulg‘aygan avlod sifatida tasvirlaydi [7]. Bu ta’rif Xaksli qahramonlari holatiga yaqin, biroq farq ham bor: Fitsjerald qahramonlari “jaz asri”ning quvnoq va isyonkor yoshlari bo‘lsa, Xaksli qahramonlari charchagan, istehzoli va o‘zlarini muddatidan oldin qarigan deb biladi. Oldington va Xaksli romanlari o‘rtasida ham o‘xshashlik (keksa avlod qadriyatlarini rad etish, qahramonlik g‘oyasini inkor qilish, musiqiy shaklga murojaat) va farq mavjud. Oldington urushni to‘g‘ridan to‘g‘ri tasvirlaydi, ohangi g‘azabli va ayblovchi, qahramoni esa halok bo‘ladi [8]. Xaksli urushni deyarli tilga olmaydi, ohangi sovuq va istehzoli, qahramonlari yashashda davom etadi, lekin bu hayot tiriklayin o‘limga o‘xshaydi. Bu ikki roman ingliz “Yo‘qotilgan

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

avlod” nasrining ikki qutbini tashkil etadi: front tajribasiga asoslangan fojiaviy-satirik roman va urushdan keyingi bo‘shliqni tasvirlovchi intellektual-satirik roman.

Xulosa

Xakslining 1920-yillardagi romanlari urushdan keyingi avlodning ma’naviy holatini bosqichma-bosqich tadqiq etadi. “Crome Yellow”da bu holat yengil satira va harakatga layoqatsizlik tarzida beriladi. “Antic Hay”da u maqsadsiz raqs va “hech narsa” haqidagi qo‘shiq obrazlarida eng yuqori nuqtasiga yetadi. “Those Barren Leaves”da kinoya o‘zini o‘zi inkor etish darajasiga yetadi, ayni paytda ma’naviy izlanish yo‘li paydo bo‘ladi. “Point Counter Point”da bo‘shliqning xavfli oqibatlari va unga qarshi qo‘yilgan hayotiy dastur ko‘rsatiladi. Turkumning markazida “Masxarabozlar raqsi” turadi, chunki unda adibning o‘zi “urush avlodi” deb atagan avlodning holati eng to‘liq ifodalangan. Xakslining urushda qatnashmagani bu xulosani o‘zgartirmaydi: u “Yo‘qotilgan avlod” mavzusining front ortidagi, fuqarolik talqinini yaratgan adibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hynes S. A War Imagined: The First World War and English Culture. London: Bodley Head, 1990.
2. Huxley A. Crome Yellow. London: Chatto & Windus, 1921.
3. Huxley A. Antic Hay. London: Chatto & Windus, 1923.
4. Huxley A. Those Barren Leaves. London: Chatto & Windus, 1925.
5. Huxley A. Point Counter Point. London: Chatto & Windus, 1928.
6. Huxley A. On the Margin: Notes and Essays. London: Chatto & Windus, 1923.
7. Fitzgerald F.S. This Side of Paradise. New York: Charles Scribner’s Sons, 1920.
8. Aldington R. Death of a Hero. London: Chatto & Windus, 1929.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.